



AYOLLARDA HAYZ SIKLINING BUZILISHLARI

Qo'ldosheva Feruza Ibragim qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti akusherlik
va ginekologiya yo'nalishi 1-bosqich ordinatori

Qamarova Zarnigor Shamsiddinovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti akusherlik
va ginekologiya yo'nalishi 1-bosqich ordinatori

Dusmurodova Maksuda G'ayratovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti akusherlik
va ginekologiya yo'nalishi 1-bosqich ordinatori

Abstract: this article is devoted to the gynecological diseases, which are often neglected in the coming years in teenage girls and women of childbearing age, which are taking the leading positions, that is, the types of menstrual cycle disorders. . The differences between normal menstrual cycle and pathological menstrual cycle and prophylactic measures to prevent the disease are highlighted.

Key words: uterus, menstruation, menstrual cycle, hypothalamus, pituitary gland, cerebral cortex, gonads, peripheral organs, amenorrhea, painful menstruation, climax, stress, oligoamenorrhea, polymenorrhea, dysmenorrhea, menorrhagia , gynecologist.

Аннотация: данная статья посвящена занимающим лидирующие позиции гинекологическим заболеваниям, которые в ближайшие годы часто игнорируются у девочек-подростков и женщин детородного возраста, то есть видам нарушений менструального цикла. . Выделены отличия нормального менструального цикла от



патологического менструального цикла и профилактические мероприятия по предотвращению заболевания.

Ключевые слова: матка, менструация, менструальный цикл, гипоталамус, гипофиз, кора головного мозга, половые железы, периферические органы, аменорея, болезненные менструации, климакс, стресс, олигоаменорея, полименорея, дисменорея, меноррагия, гинеколог.

Annotatsiya: ushbu maqola keying yillarda o'smir qizlarda va tug'ish yoshidagi ayollarda ko'p va tez tez uchrab turishi bilan yetakchi o'rinlarni egallayotgan, lekin aksar holatlarda e'tiborsiz qoldirilayotgan ginekologik kasalliklarga ya'ni hayz siklining buzilish turlariga bag'ishlangan. Bunda normal hayz sikli va patologik hayz siklining bir biridan farqlari va kasallikni oldini olishni prosilaktik chora tadbirlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: bachadon, mensturatsiya, hayz sikli, gipotalamus, gipofiz, bosh miya po'stlog'i, jinsiy bezlar, periferik a'zolar, amenoreya, og'riqli hayz, klimaks, stress, oligoamenoreya, polimenoreya, dismonoreya, menoragiya, ginekolog.

Balog'atga yetgan, ammo xomilador bo'lmagan ayol organizmida navbati bilan takrorlanuvchi murakkab o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'zgarishlar ayollarni xomiladorlikka tayyorlaydi. Biologik nuqtayi nazardan muhim ro'l o'ynaydigan, ritmik ravishda takrorlanadigan bu o'zgarishlar- *MENSTURATSIYA* (hayz) sikli deb ataladi. Mensturatsiya sikli deb, ayollarning bachadonidan vaqti-vaqti bilan muntazam ravishda qon kelishiga aytiladi.

Hayz siklining davomiylik ritmiga qarab hayz sikli 2 guruhga bo'linadi:

- 1) normal hayz sikli;
- 2) noritmik yoki patologik hayz sikli.

Normal hayz sikli balog'atga yetish davrida yani 12-15 yosh yoshlar orasida boshlanadi va 16-17 yosh orasida to'liq siklik ravishda sog'lom qizlarda davom etadi.



Hayz sikli normasi. Sikl aslida qancha davom etishi kerak?



Hayzda qon ketish ma'lum bir muddat 3-6 kun davom etadi va bu jarayon ayolni bola tug'ish davrida muntazam takrorlanib turadi, faqat homiladorlik va bola emizish vaqtida kuzatilmaydi. Hayz klimaks davrida ya'ni 45-55 yoshda to'xtaydi. Hayz davrida ayollar turli miqdorda qon yo'qotadilar. Hayz qoni ishqoriy reaksiyali, qo'ng'ir rangli,

shilliq aralash bo'lib, unda ivish jarayoni kam bo'ladi. Qiz bola birinchi marta hayz ko'rganda uning organizmida va tana tuzilishida bir qator sezilarli o'zgarishlar ro'y beradi. Ayollarga hos ikkilamchi jinsiy belgilar paydo bo'ladi. Ko'krak bezlari kattalashadi, qov ustida tuklar paydo bo'ladi, tashqi va ichki jinsiy a'zolar to'liq rivojlanib tugaydi. Hayz sikli hayz ko'rishning birinchi kunidan to kelgusi hayzning birinchi kunigacha hisob qilinadi. Ko'pincha hayz sikli 28 kun davom etadi. Ayrim hollarda hayz sikli 21 kun yoki 32-35 kun bo'lishi mumkin. Hayz sikli davomida ayollar organizmida turli o'zgarishlar kuzatiladi. Hozirgi tushunchalarga asosan hayz sikli kechishida 5 ta bosqich farqlanadi:

- 1) bosh miya po'stlog'i;
- 2) gipotalamus;
- 3) gipofiz;
- 4) jinsiy bezlar;
- 5) periferik a'zolar (bachadon, bachadon naylari, qin).

Hayz sikli ayollar organizmining salomatlik belgisidir. Sog'lom ayolda bu sikl 21 kundan 35 kungacha bo'lishi mumkin. Agar hayz kunlari orasidagi muddat 40-60 kundan oshsa yoki 21 kundan kamaysa sikl buzilganligini tahmin qilish mumkin.

Hayz siklining buzilishini bir necha ko'rinishlari mavjud;

- Amenoreya (6 oy davomida hayz ko'rmaslik);
- Gipomenstrual sindrom (kamdan kam, qisqa, kam miqdorda hayz ko'rish);
- Ko'p miqdorda qon ketishi bilan bog'liq hayz siklining);
- Algodismenoreya, ya'ni og'riqli hayz ko'rish.



Hayz sikli buzilishini kelib chiqishini asosiy sabablari:

- Asab tizimining buzilishi, streslar;
- Gormonal o'zgarishlar ;
- Kichik tos sohasi ichki organlarining yuqori kasalliklari;
- Irsiy omillar
- Iqlim o'zgarishlari;
- Dori darmonlarni qabul qilish;
- Semizlik yoki haddan tashqari ozg'inlik;
- Ichki organlar patologiyasi;
- Tuxumdondagi havfli va havfsiz o'smalar;
- Bachadondan tashqari xomiladorlik;
- Bolalikdagi tez tez shamollashlar;
- Bolalik paytidagi qizilcha va suvchechak kabi kasalliklar bilan og'riganligi.

Hayz sikli buzilganda namayon bo'ladigan belgilar quyidagilardir:

- Hayz siklining muntazamligi buzilishi;
- Qon miqdorining kamayishi;
- Hayz sikli davomiyligining qisqarishi;
- Hayz paytida doimiy kuchli og'riq;
- Hayz vaqtida normaga nisbatan ko'p miqdorda qon ketishi.

Sanab o'tilgan quyidagi alomatlarni bittasi bo'lsa ham kuzatilsa, shifokor ginekolog bilan maslahatlashish zarur. Chunki hayz siklini buzilishi jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Gipotalamus-gipofiz tizimi tomonidan ajratiladigan gonadotrop gormonlar — FSG, LG va LTG tuxumdonlarda o'zgarishlarini keltirib chiqaradi, bu tuxumdon sikli deb ataladi va quyidagi bosiqchlarni o'z ichiga oladi:

Follikulyar faza — follikulning yetilishi jarayoni;



Ovulyatsiya fazasi — yetilgan follikulning yorilishi va tuxum hujayraning chiqishi;

Progesteron (lyuteinli) faza — sariq tananing rivojlanishi jarayoni.

Menstruatsiya davrining oxirida, tuxum hujayra urug'lantirilmagan bo'lsa, sariq tana regressiya qiladi. Tuxumdonlarning jinsiy gormonlari (estrogenlar, gestagenslar) bachadonda tonus, qon ta'minoti, qo'zg'aluvchanlik, shilliq qavatdagi dinamik jarayonlarning o'zgarishini, ya'ni ikki bosqichdan iborat bachadon siklini chaqiradi:

Proliferatsiya fazasi — endometriy funktsional qatlamining tuzalishi, jarohatlangan yuzasi bitishi va uning keyingi rivojlanishi. Bu bosqich follikulning rivojlanish jarayoni bilan bir vaqtda sodir bo'ladi.

Sekretsia fazasi — bachadon shilliq qavati funktsional qatlamining yumshashi, qalinlashishi va rad etilishi (deskvamatsiya). Funktsional qatlamning rad etilishi hayz ko'rish orqali namoyon bo'ladi. Vaqti bo'yicha bu bosqich tuxumdondagi sariq tananing rivojlanishi va nobud bo'lishiga to'g'ri keladi.

Hayz buzilishi turlari

Hayz siklining buzilishi hayz ko'rish ritmi va intensivligining o'zgarishi bilan namoyon bo'lishi mumkin, masalan ular o'rtasidagi davrning uzayishi yoki qisqarishi, ajraladigan qon miqdorining oshishi yoki kamayishi, hayz ritmi o'zgaruvchanligi. Hayz siklining buzilishi quyidagi shaklda kechadi:

Amenoreya — hayzning 6 oydan ortiq vaqt davomida kelmasligi;

Gipermenstural sindrom:

gipermenoreya — hayz qonining ko'p bo'lishi;

polimenoreya — 7 kundan ortiq hayz ko'rish;

proyomenoreya — 21 kundan kam interval bilan tez-tez hayz ko'rish.

**Gipomenestrual sindrom:**

gipomenoreya — hayz qonining kam bo'lishi;

oligomenoreya — hayz muddatining qisqarishi (1-2 kundan ortiq bo'lmaydi);

opsomenoreya — 35 kun va undan ortiq muddatli juda uzoq intervallar bilan hayz ko'rish.

Algomenoreya — og'riqli hayz ko'rish;

Dismenoreya — umumiy buzulishlar (bosh og'rig'i, ishtahaning pasayishi, ko'ngil aynishi, qusish) bilan kechadigan hayz;

Algodismenoreya — mahalliy og'riqlar va umumiy ahvolning yomonlashishi bilan kechadigan hayz;

Ovulyatsiya va sariq tana yo'qligi bilan tavsiflanadigan neyroendokrin regulyatsiyaning buzilishi natijasida sodir bo'ladigan anovulyator (bir fazali) bachadondan qon ketish.

Bir fazali hayz siklida menstrual disfunktsiya follikul persistentsiyasi (follikulning ovulyatsiyasiz yetilishi va follikulyar kista rivojlanishi) yoki yetilmagan follikulning atreziyasi (degeneratsiyasi, bo'shliqqa aylanishi) tomonidan chaqirilgan bo'lishi mumkin.

Ginekologiyada ikki fazali hayz siklini aniqlash uchun muntazam ravishda ertalabki rektal (bazal) haroratni o'lchash usuli qo'llaniladi.

Ikki fazali hayz siklida, follikulyar fazada to'g'ri ichakdagi harorat 37°C dan kam, lyufazada esa 37°C dan yuqori bo'ladi va hayz boshlanishidan 1-2 kun oldin pasayadi.

Anovulyator (bir fazali) siklda harorat egrisi biroz o'zgarishlar bilan 37°C dan kamroq ko'rsatkichlar bilan farqlanadi. Bazal haroratni o'lchash kontraseptsiyaning fiziologik usuli hisoblanadi. Bundan tashqari, ikki bosqichli hayz siklida turli vaqtlarda qindan olingan



surtmalar sitologik tasvirida xarakterli o'zgarishlar kuzatiladi: «filament», «qorachiq» alomatlari va boshqalar.

Metorragiya, ya'ni hayz sikli bilan bog'liq bo'lmagan asiklik bachadondan qon ketishi ko'pincha ayol jinsiy tizimining o'smalar tomonidan shikastlanishiga hamrohlik qiladi. Hayz buzilishiga duch kelgan ayollar, albatta, buzilish sababini aniqlash uchun albatta ginekologga murojaat qilishlari

Hayz siklini buzilishini oldini olish profilaktikasi quyidagi bir qator chora tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- Stress va kuchli asabiy taranglikdan saqlanish;
- Ortiqcha jismoniy faollikni kamaytirish;
- Ko'p miqdorda sabzavot va mevalar bilan sog'lom ovqatlanish;
- Kasallikni birinchi belgilarida shifokorga murojat qilish;
- 6 oyda bir marta ginekolog tekshiruvhidan o'tish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, biz e'tiborsiz qoldirayotgan hayz siklini buzilishlari jiddiy oqibatlariga olib kelishidir. Bu jiddiy oqibatlar nimalardan iborat voyaga yetayotgan o'smir qizlarda hayz siklini kechikishi yoki og'riqli bo'lishi birlamchi hamda ikkilamchi bepushtlilikka olib kelishi, tug'ish yoshidagi ayollarda esa ham ikkilamchi bepushtlilik va bir qator havfli va havfsiz o'sma kasalliklari, bachadonni muddatidan oldin qarishi, turli xildagi papilloma, eroziyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Mana shu kabi salbiy jiddiy oqibatlarni oldini olish uchun normal hayz sikli va patologik hayz siklini bir biridan aniq ajrata olishimiz kerak. Agar hayz sikli muddati, qon hajmi va siklni o'tish jarayoni yuzasidan shubhali holatlar kuzatilsa darhol mutahassis bilan suhbatlashish, agar davo kursi belgilansa vaqtni cho'zmasdan davolanish kerak. Bu kabi chora tadbirlarni samaradorligini oshirish uchun atrofdagilar va oila a'zolarimizga befarq bo'lmay shifokorlar bilan birgalikda harakat qilmog'imiz lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ya.N.Allayarov akusherlik va ginekologiya kitobi 55-65 betlardan
2. M. F Ziyayeva, G. X. Mavlyanova ginekologiya kitobi 2018 14-19 betlar
3. <https://avitsenna.uz/hayz-funksiyasining-buzilishi/>
4. <https://www.savol-javob.com/hayz-haqida-toliq-malumot/>
5. <https://avitsenna.uz/hayz-funksiyasining-buzilishi/>
6. Med24.uz